

SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA XORIJIY TILLARNI O'QITISHNING RAQAMLI MODELLARI: INGLIZ VA XITOIY TILLARI TAJRIBASI

Radjabova Madinabonu Raimovna,
Samarqand davlat chet tillar instituti
Lingvistika: xitoy tili yo'nalishi magistranti

Raxmonova E'zoza Sherzod qizi,
Samarqand davlat chet tillar instituti
Ingliz filologiyasi va tarjimashunoslik fakulteti talabasi

Annotatsiya. Mazkur ilmiy maqolada xorijiy tillarni o'qitish jarayonini raqamlashtirishning zamonaviy yo'nalishlari, sun'iy intellekt asosidagi ta'lim platformalarining imkoniyatlari hamda ingliz va xitoy tillarini o'qitishda qo'llanilayotgan innovatsion metodlar tahlil qilinadi. Maqolada xalqaro ta'lim platformalari, adaptiv o'quv tizimlari va nutqni aniqlash texnologiyalarining samaradorligi ilmiy manbalar asosida yoritilgan. Ta'lim jarayonida raqamli vositalarning qo'llanilishi, individual yondashuvni ta'minlash, talaffuz, grammatika, tinglab tushunish va yozuv ko'nikmalarini rivojlantirishdagi afzalliklari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, sun'iy intellekt texnologiyalarining chet tillarini o'qitishda samaradorlikni oshirishdagi imkoniyatlari hamda mavjud muammolar yuzasidan ilmiy xulosalar beriladi.

Kalit so'zlar: raqamlashtirish, sun'iy intellekt, ingliz tili, xitoy tili, xorijiy til ta'limi, onlayn platforma, innovatsion texnologiyalar, ChatGPT, mobil ilovalar.

Аннотация. В данной научной статье анализируются современные тенденции цифровизации преподавания иностранных языков, возможности образовательных платформ на основе искусственного интеллекта и инновационные методы, используемые в преподавании английского и китайского языков. В статье рассматривается эффективность международных образовательных платформ, адаптивных систем обучения и технологий распознавания речи на основе научных источников. Рассматриваются преимущества использования цифровых инструментов в образовательном процессе, обеспечивающих индивидуальный подход и развивающих навыки произношения, грамматики, понимания на слух и письма. Также приводятся научные выводы о потенциале технологий искусственного интеллекта для повышения эффективности преподавания иностранных языков, а также рассматриваются существующие проблемы.

Ключевые слова: цифровизация, искусственный интеллект, английский, китайский, преподавание иностранных языков, онлайн-платформа, инновационные технологии, ChatGPT, мобильные приложения.

Abstract. This scientific article analyzes modern trends in the digitalization of foreign language teaching, the capabilities of artificial intelligence-based educational platforms, and innovative methods used in teaching English and Chinese. The article covers the effectiveness of international educational platforms, adaptive learning systems, and speech recognition technologies based on scientific sources. The advantages of using digital tools in the educational process, ensuring an individual approach, and developing pronunciation, grammar, listening comprehension, and writing skills are considered. Also, scientific conclusions are given on the potential of artificial intelligence technologies to increase efficiency in teaching foreign languages, as well as existing problems.

Keywords: digitization, artificial intelligence, English, Chinese, foreign language education, online platform, innovative technologies, ChatGPT, mobile applications.

Kirish. Bugungi globallashuv davrida xorijiy tillarni mukammal o'rganish zamonaviy jamiyatning asosiy ehtiyojlaridan biriga aylandi. Ayniqsa, ingliz va xitoy

tillariga bo‘lgan talabning ortib borishi ta‘lim tizimida yangi pedagogik yondashuvlarni joriy etishni talab qilmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida ta‘lim jarayonini raqamlashtirish imkoniyatlari kengayib, xorijiy tillarni o‘qitishda innovatsion usullar paydo bo‘ldi. [2]

Adabiyotlar tahlili. UNESCO va boshqa xalqaro tashkilotlar ma‘lumotlariga ko‘ra, so‘nggi yillarda sun‘iy intellekt texnologiyalarining ta‘lim tizimidagi ulushi keskin oshgan. Ayniqsa, 2020-yildan keyin masofaviy ta‘limning kengayishi natijasida AI asosidagi platformalarga bo‘lgan talab ortdi. [1] Bugungi kunda Duolingo, ChatGPT, Grammarly, Elsa Speak va HelloChinese kabi platformalardan millionlab foydalanuvchilar foydalanmoqda. Ayniqsa, ingliz va xitoy tillarini o‘qitishda sun‘iy intellekt asosidagi platformalar, mobil ilovalar va interaktiv dasturlar talabalarning til ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim vositaga aylanmoqda. Mazkur texnologiyalar yordamida o‘quvchilarning bilim darajasini aniqlash, individual topshiriqlar yaratish, talaffuzdagi xatolarni aniqlash hamda real vaqt rejimida fikr-mulohaza bildirish imkoniyati paydo bo‘lmoqda.

Mazkur maqolaning maqsadi xorijiy tillarni o‘qitishni raqamlashtirishning zamonaviy tendensiyalarini tahlil qilish, sun‘iy intellekt texnologiyalarining ingliz va xitoy tillarini o‘qitishdagi o‘rnini o‘rganish hamda ularning samarali qo‘llanilish usullarini yoritishdan iborat.

Xorijiy tillarni o‘qitishda raqamlashtirish tushunchasi. Raqamlashtirish — bu ta‘lim jarayonida an‘anaviy metodlarni raqamli texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirish jarayonidir. Xorijiy tillarni o‘qitishda raqamlashtirish multimediya vositalari, onlayn platformalar, mobil ilovalar va virtual ta‘lim muhiti orqali amalga oshiriladi.

Muhokamalar. Raqamli texnologiyalarning til ta‘limiga kirib kelishi quyidagi imkoniyatlarni yaratdi: masofaviy ta‘limni tashkil etish; interaktiv mashqlar orqali bilimni mustahkamlash; audio va video materiallardan samarali foydalanish; til ko‘nikmalarini mustaqil rivojlantirish; ta‘limning individuallashtirilishi. [3]

2020–2023-yillar oralig‘ida masofaviy ta‘lim platformalaridan foydalanish bir necha baravar oshdi. Natijada Zoom, Google Meet, Moodle va Microsoft Teams kabi platformalar xorijiy tillarni o‘qitishda asosiy vositalardan biriga aylandi. Zoom, Google Meet, Moodle, Microsoft Teams kabi platformalar xorijiy tillarni masofadan o‘qitishda keng qo‘llanila boshlandi. Ushbu vositalar o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi interaktiv aloqani saqlab qolishga yordam berdi.

Ingliz va xitoy tillarini o‘qitishda multimedia materiallaridan foydalanish tinglab tushunish va talaffuz ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, ingliz tilida TED Talks, BBC Learning English kabi platformalar samarali bo‘lsa, xitoy tilida HSK Online, ChineseSkill va HelloChinese dasturlari keng qo‘llaniladi.

Sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'limdagi o'rni. Sun'iy intellekt — inson tafakkuriga xos bo'lgan ayrim funksiyalarni bajarishga qodir texnologiyalar majmuasidir. Bugungi kunda sun'iy intellekt tibbiyot, iqtisodiyot, transport va ta'lim kabi ko'plab sohalarda qo'llanilmoqda.

Ta'lim tizimida sun'iy intellekt quyidagi vazifalarni bajaradi: o'quvchi bilim darajasini tahlil qilish; individual o'quv dasturlarini yaratish; avtomatik baholash; nutqni aniqlash va talaffuzni tekshirish; virtual yordamchi sifatida xizmat qilish.

Xorijiy tillarni o'qitishda sun'iy intellekt asosidagi dasturlar til o'rganish jarayonini soddalashtirib, o'quvchilarning mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Masalan, Grammarly platformasi yozma matnlardagi grammatik va stilistik xatolarni aniqlash orqali yozuv ko'nikmalarini rivojlantiradi. Duolingo Max esa GPT texnologiyasi asosida foydalanuvchi bilan interaktiv suhbat olib boradi. ChatGPT platformasi esa real vaqt rejimida savol-javob qilish, matnlarni tahlil etish va dialog yaratish imkonini beradi.

Natijalar. Sun'iy intellektning asosiy afzalliklaridan biri individual yondashuvni ta'minlashidir. Har bir o'quvchi bilim darajasi, qiziqishi va o'zlashtirish tezligiga qarab turli topshiriqlarni bajaradi. Bu esa o'quv jarayonining samaradorligini oshiradi.

Ingliz tilini o'qitishda sun'iy intellektdan foydalanish. Ingliz tili xalqaro aloqa vositasi sifatida dunyo miqyosida eng ko'p o'rganiladigan tillardan biri hisoblanadi. Shu sababli ingliz tilini o'qitishda innovatsion texnologiyalar keng qo'llaniladi. Sun'iy intellekt asosidagi platformalar ingliz tilini o'rganishda quyidagi imkoniyatlarni beradi:

1. Talaffuzni rivojlantirish. Sun'iy intellekt asosidagi speech recognition texnologiyasi orqali o'quvchining talaffuzi tahlil qilinadi va fonetik xatolar aniqlanadi. Elsa Speak dasturi ingliz tilidagi talaffuzni Amerika standarti asosida baholaydi. Masalan, Duolingo va Elsa Speak ilovalari talaffuzni avtomatik tekshiradi.

2. Grammatikani o'rganish. Grammarly kabi platformalar yozma nutqdagi grammatik xatolarni aniqlab, ularni tuzatish bo'yicha tavsiyalar beradi.

3. So'z boyligini oshirish. Sun'iy intellekt asosidagi mobil ilovalar yangi so'zlarni kontekst asosida o'rgatadi. Bu esa so'zlarni uzoq muddat eslab qolishga yordam beradi.

4. Virtual suhbat imkoniyati. Chatbotlar yordamida talabalar ingliz tilida muloqot qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. ChatGPT kabi platformalar real suhbat muhitini yaratadi.

5. Mustaqil ta'lim. Onlayn platformalar orqali talabalar istalgan vaqt va joyda til o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Shuningdek, sun'iy intellekt yordamida til o'rganishda gamifikatsiya usuli ham keng qo'llanilmoqda. Ball yig'ish, bosqichlardan o'tish va reyting tizimi o'quvchilarning motivatsiyasini oshiradi.

Xitoy tilini o'qitishda sun'iy intellektdan foydalanish. Bugungi kunda xitoy tili xalqaro iqtisodiy aloqalarda muhim tillardan biriga aylanmoqda. Xitoyning global iqtisodiyotdagi ulushi ortib borayotgani sababli ko'plab mamlakatlarda xitoy tilini o'rganishga qiziqish kuchaymoqda. Xitoy tili iyeroglif yozuvi va ton tizimining murakkabligi bilan boshqa tillardan farq qiladi. Shu sababli uni o'qitishda zamonaviy texnologiyalar alohida ahamiyatga ega.

Sun'iy intellekt texnologiyalari xitoy tilini o'rganishda quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

1. Tonlarni to'g'ri talaffuz qilish. Xitoy tilidagi to'rt tonni to'g'ri talaffuz qilish til o'rganishda eng muhim jihatlardan biridir. Nutqni aniqlash texnologiyasi yordamida o'quvchining talaffuzi tekshiriladi.

2. Iyerogliflarni o'rganish. HelloChinese va Skritter kabi ilovalar iyerogliflarni yozish tartibini ko'rsatadi hamda xatolarni avtomatik tahlil qiladi.

3. Tinglab tushunishni rivojlantirish, Sun'iy intellekt asosidagi audio materiallar yordamida turli tezlikdagi nutqlarni tinglash imkoniyati yaratiladi.

4. Individual yondashuv. Platformalar o'quvchining HSK darajasiga mos topshiriqlarni tavsiya qiladi.

5. Madaniyatni o'rganish. Virtual texnologiyalar yordamida Xitoy madaniyati, urf-odatlar va kommunikativ muhitini o'rganish imkoniyati kengayadi.

Xitoy tilini o'qitishda vizual materiallarning o'rni juda katta. Video darslar, animatsiyalar va interaktiv mashqlar o'quvchilarning qiziqishini oshiradi.

Ingliz va xitoy tillarini o'qitishda raqamli texnologiyalarni taqqoslash

Ingliz va xitoy tillarini o'qitishda raqamli texnologiyalar qo'llanilishi o'xshash jihatlarga ega bo'lsa-da, ayrim farqlar ham mavjud.

Mezoni	Ingliz tili	Xitoy tili
Talaffuz	Fonetik tizim nisbatan sodda	Ton tizimi murakkab
Yozuv	Lotin alifbosi	Iyeroglif yozuvi
Platformalar	Duolingo, Grammarly, BBC Learning English	HelloChinese, HSK Online, ChineseSkill
Sun'iy intellekt vazifasi	Grammatika va muloqot	Ton va iyerogliflarni tekshirish
O'qitish usuli	Kommunikativ yondashuv	Vizual va takrorlash usuli

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, ingliz tilida grammatika va muloqotga ko'proq e'tibor qaratilsa, xitoy tilida talaffuz va iyerogliflarni o'rganish asosiy o'rinda turadi.

Sun'iy intellekt texnologiyalarining afzalliklari va muammolari

Afzalliklari

1. Ta'limning individuallashtirilishi.
2. O'quvchilarning motivatsiyasini oshirishi.
3. Mustaqil ta'lim imkoniyatining kengayishi.
4. Vaqt va resurslarni tejashi.

5. Tezkor fikr-mulohaza berilishi.
6. Masofaviy ta'limni samarali tashkil etish.

Muammolari

1. Internet va texnik vositalarga bog'liqlik.
2. Ba'zi hududlarda raqamli infratuzilmaning yetarli emasligi.
3. Sun'iy intellektning barcha xatolarni to'liq aniqlay olmasligi.
4. O'qituvchi va talaba o'rtasidagi jonli muloqotning kamayishi.
5. Akademik halollik bilan bog'liq muammolar.

Shu sababli sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishda o'qituvchining nazorati va metodik yondashuvi muhim ahamiyatga ega.

Zamonaviy pedagogik yondashuvlar va istiqbollar

Kelajakda xorijiy tillarni o'qitishda sun'iy intellekt texnologiyalarining roli yanada ortishi kutilmoqda. Virtual reallik (VR), kengaytirilgan reallik (AR) va aqlli chatbotlar yordamida real til muhiti yaratish imkoniyati kengayadi.

Shuningdek, adaptiv ta'lim tizimlari orqali har bir o'quvchi uchun individual o'quv dasturlari ishlab chiqiladi. Bu esa ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston ta'lim tizimida ham raqamli ta'limni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, Prezident qarorlari asosida maktab va oliy ta'lim muassasalarida elektron platformalar, onlayn ta'lim tizimlari va raqamli resurslarni joriy etish ishlari olib borilmoqda. Xorijiy tillarni o'qitishda sun'iy intellektdan samarali foydalanish pedagoglarning raqamli kompetensiyasini oshirishni talab qiladi.

O'qituvchilar zamonaviy platformalar bilan ishlash, multimedia vositalaridan foydalanish va sun'iy intellekt imkoniyatlarini pedagogik maqsadlarda qo'llash bo'yicha malaka oshirishlari lozim.

Xulosa. Xorijiy tillarni o'qitishni raqamlashtirish va sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish zamonaviy ta'limning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ingliz va xitoy tillarini o'qitishda innovatsion texnologiyalar talabalarning til ko'nikmalarini rivojlantirish, mustaqil ta'limni tashkil etish hamda ta'lim samaradorligini oshirishda katta ahamiyatga ega.

Sun'iy intellekt asosidagi platformalar talaffuzni tekshirish, grammatik xatolarni aniqlash, individual topshiriqlar yaratish va virtual muloqot muhiti hosil qilish imkonini beradi. Ayniqsa, xitoy tilidagi ton va iyerogliflarni o'rganishda, ingliz tilida esa kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirishda sun'iy intellekt texnologiyalarining ahamiyati yuqori.

Shu bilan birga, texnologiyalardan foydalanishda pedagogik nazorat, metodik yondashuv va akademik halollikni ta'minlash muhim hisoblanadi. Kelajakda sun'iy intellekt texnologiyalarining yanada rivojlanishi xorijiy tillarni o'qitish sifatini yangi bosqichga olib chiqishi kutilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ta'limni raqamlashtirish bo'yicha qarorlari va farmonlari.
2. Jalolov J. J. Chet til o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2012.
3. Passov E. I. Kommunikativ metodika osnov obucheniya inostrannym yazykam. – Moskva, 1991.
4. Richards J. C., Rodgers T. Approaches and Methods in Language Teaching. – Cambridge University Press, 2014.
5. Harmer J. The Practice of English Language Teaching. – Pearson Education Limited, 2007.
6. Wang Y. Teaching Chinese as a Foreign Language. – Beijing Language University Press, 2018.
7. Holmes W. Artificial Intelligence in Education. – UNESCO Publishing, 2019.

